

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 336,722 (510)

KBK: 65,262 (5KIIЧ)

P – 46

Pirnafasova Shahnoza Dilshodovna

**XITOIY MOLIYA-KREDIT TIZIMINING ZAMONAVIY
RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

5A 5231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik
(mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent **Sadibekova B.**

Toshkent– 2018

Himoyaga ruxsat berildi:

Magistratura bo'limi boshlig'i

G.S. Mutalova

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Moliya-kredit tizimining nazariy asoslari.....	9
1. Zamonaviy moliya-kredit tizimining institutsional tuzilishi tarkibi.....	9
2. Moliya-kredit tizimining mohiyati va elementlari.....	13
3. Xitoy moliya-kredit tizimini tahlil qilishda nazariy qarashlar evolyutsiyasi.....	19
I bob bo'yicha xulosalar.....	28
II bob. Xitoy moliya-kredit tizimining rivojlanish xususiyatlari va uning Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari moliya tizimlari bilan qiyosiy tahlili.....	30
1. Xitoy moliya-kredit tizimining vujudga kelishi va rivojlanish xususiyatlari.....	30
2. Xitoy moliya-kredit tizimi segmentlari va sub'yektlarining tahlili.....	35
3. Xitoy va Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari moliya tizimlarining qiyosiy tahlili.....	45
II bob bo'yicha xulosalar.....	52
III bob. Xitoy zamonaviy moliya-kredit tizimining rivojlanish muammolari va istiqbollari.....	53
1. Xitoy moliya tizimi subyektlari rivojlanishining yangi yo'nalishlari.....	53
2. Xitoy moliya bozorining rivojlanishida yangi texnologiyalar va global bozorlarda ularning o'rni.....	56
3. O'zbekiston sharoitida moliya-kredit tizimini rivojlantirishda Xitoy tajribasidan foydalanish zarurati va imkoniyatlari.....	66
III bob bo'yicha xulosalar.....	70
Xulosa.....	71
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

Moliya-kredit tizimi moliya va kredit tizimlarining alohida, lekin o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlarini o‘z ichiga oladi. Moliya tizimi kabi kredit tizimi ham o‘zining shakllanish mexanizmlari va faoliyat ko‘rsatish xususiyatlariga ega. Banklar, sug‘urta tashkilotlari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari mamlakatga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi, jalb qiladi va savdo asosida moliyaviy vositalarni taqdim qiladi. Iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda mamlakat moliya-kredit tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarni hisobga olmaslik yoki ularga to‘liq ahamiyat bermaslik milliy xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi hech kimga sir emas. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev boshchiligidagi ilgari surilgan va qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”¹da ham ushbu tizimga alohida urg‘u berilgan hamda quyidagilar muhim asosiy yo‘nalishlar qatoridan joy olgan:

- Ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish;
- Bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;
- Sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси»// Тошкент, Халқ сўзи, 2017 йил. 8 февраль

– Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Hozirgi kunda Xitoy yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha, dunyo davlatlari ichida ikkinchi o‘rinni egallab ulgurdi. Xitoyning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlardagi ko‘rsatkichlardan yuqori, rivojlangan iqtisodiyotga ega davlatlar ichida esa bu borada Xitoy yetakchilik qiladi. Yuqori iqtisodiy o‘sish natijalariga erishishda Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan amalga oshirilgan nafaqat qishloq xo‘jaligi, sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi islohotlar, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lmish, moliya sohasining to‘g‘ri faoliyat yuritishini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy iqtisodiy islohotlarni o‘tkazishdan oldin buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiy tizimga ega bo‘lgan. Hozirgi vaqtga kelib, Xitoy moliya-kredit tizimi iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligini ta‘minlash, iqtisodiy o‘sishni yuqori sur‘atlarda saqlab turishda borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliya-kredit tizimi orqali Xitoy hukumati rivojlangan davlatlar kabi iqtisodiyotga davlat aralashuvini minimallashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni tadqiq qilish, o‘rganilgan tajribani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash, uning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirib olish ishning dolzarbligini belgilaydi. Zero, “Xitoy tomoni O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishilgandan so‘ng o‘tgan 26 yil mobaynida rivojlanishdagi ulkan muvaffaqiyatlarini yuqori baholaydi, O‘zbekistonning o‘z ichki sharoitlariga binoan tanlagan taraqqiyot yo‘lini qat‘iy qo‘llab quvvatlaydi, shuningdek, O‘zbekiston hukumati tomonidan ichki barqarorlikni ta‘minlash va turg‘un ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ilgari surish uchun olib borilayotgan barcha sa‘y-harakatlarni qat‘iy qo‘llab-quvvatlaydi”².

² <http://uza.uz/uz/politics/>18-05-2017 Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonoti

Tadqiqot ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot ishining obyekti Xitoy Xalq Respublikasining moliya va kredit tizimlari hisoblanadi.

Tadqiqot ishining predmeti XXR moliya-kredit tizimi rivojlanishining asosiy zamonaviy rivojlanish muammo va xususiyatlarini tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi Xitoy Xalq Respublikasi moliya-kredit tizimining rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari, ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar va zamonaviy rivojlanish yoʻnalishlarini tahlil etish hamda shu asosda kerakli tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot ishi oldiga quyidagi vazifalar qoʻyildi:

- Zamonaviy moliya-kredit tizimining institutsional tuzilishi tarkibini oʻrganish;
- Moliya-kredit tizimining tub mohiyatini ochib berish va uning elementlarini aniqlash;
- Xitoy moliya-kredit tizimini tahlil qilishga nazariy qarashlar evolyutsiyasini oʻrganib chiqish;
- Moliya va moliya tizimining shakllanish bosqichlarini oʻrganish;
- Jahon moliya-kredit tizimining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish;
- Xitoy moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlarini oʻrganish;
- Xitoy moliya-kredit tizimi segmentlari va subyektlarining tahlil qilish;
- Xitoy va Shimoliy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari moliya tizimlarini qiyosiy tahlil qilish;
- Xitoy moliya tizimi subyektlari rivojlanishining yangi yoʻnalishlarini aniqlash;
- Xitoy moliya bozorining rivojlanishida yangi texnologiyalar va global bozorlarda Xitoyning moliyaviy vositachilari rolini aniqlash;

- Xitoyning moliya-kredit tizimini isloh qilish va rivojlantirish borasidagi tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini izlab topish.

Tadqiqot mavzusining ilmiy yangiligi. XXRning moliya-kredit tizimining zamonaviy rivojlanish xususiyatlari, shu sohada amalga oshirilgan zamonaviy islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda unga to‘sqinlik qilayotgan sabablar o‘rganib chiqildi va moliya tizimining globalizatsiya va integratsiyalashuvi xususiyatlari tahlil qilinib, soha oldida yechimini kutayotgan muammolar aniqlandi va uning ayrim jihatlaridan O‘zbekiston moliya-kredit tizimini modernizatsiyalashda foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mahalliy byudjetning markaziy byudjetga bog‘liqlikni kamaytirishga qaratilgan choralar, “yomon qarzlar” yoki istiqbolsiz loyihalarni markaziy byudjet tomonidan moliyalashtirishni to‘xtatish masalasi va eng muhimi, aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishda moliya-kredit tizimi vositalaridan foydalanish masalasi ishimizning asosiy masalalari hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish yo‘nalishida moliya-kredit tizimidagi ayrim vositalardan foydalanishdagi cheklovlarning mavjudligi ushbu sohaning xo‘jalik yuritish shaklidagi ta‘sirini kamaytirib yuborishi, Xitoy iqtisodiyoti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashqi iqtisodiy faoliyatda faol investitsion aktivlikni ko‘rsatib jahon kapital bozorida yetakchilikni qo‘lga kiritishi faraz qilinadi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Xitoy iqtisodiyotining moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan ko‘pgina Xitoy iqtisodchi olimlari shug‘ullanib kelishgan. Jumladan, ular qatoriga Xitoy iqtisodiy islohotlari bosh arxitektori Den Syaopinni, Go Kesoni, Xao Szyanxen, Lu Yunsyen, Chjou Veydi, Chjao Xuashen, Su Fenlin, Li Szin Ven³, Lyu

³ Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. – М.: РАН, 2000. – Вып.9. – С.9-29.

Goguan⁴, Li Ke⁵, Feng Shao Lei⁶, Xue Jun Du⁷, Sun Xiao Yu⁸, Lu Nan Chuan⁹ va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, ular qatorida ushbu muammoni turli qirralarini o'z asarlarida yoritib kelayotgan Rossiya iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan A.V.Ostrovskiy¹⁰, E.F. Avdokushin¹¹, Y. P. Bajenov¹², Z. A. Muromseva¹³, A. S. Selishev¹⁴, va boshqalarni nomlarini atab o'tish lozimdir.

Undan tashqari, ushbu sohaning nazariy jihatlarini turlicha yondashuvlar orqali O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham o'zlarining bir qator ilmiy monografiya va maqolalarida yoritganlar. Ular jumlasiga: N. T. To'xliyev¹⁵, A.V. Vaxobov¹⁶, Q. Q. Haqberdiyev¹⁷, B. D. Sadibekova¹⁸ larni kiritish mumkindir.

Tadqiqot mavzusining nazariy asoslari bo'lib Xitoy, AQSH, Germaniya, Rossiya va O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ushbu soha bo'yicha ilmiy izlanishlari, Xitoy hukumatining moliya-kredit sohasida islohotlar o'tkazish va modernizatsiyalash bo'yicha qabul qilgan turli qonuniy va normativ aktlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari hisoblanadi. Tadqiqotning axborot manbai bo'lib, XXR ning turli statistik ma'lumotlari, jumladan: Chjungo tunszi nyanszyan; Chjungo gune szinszi tunszi szilyao; Chjungo tunszi chjayno axborotnomalari va O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ma'lumotlari xizmat qildi.

⁴ Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая// Проблемы ДВ. – М., 2001. – №6. – С.64-70.

⁵ Ли Ке. Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая//Проблемы теории и практики управления. – М., 2002. – №1. – С.63-67.

⁶ 冯绍雷, 相蓝欣, 俄罗斯经济转型 [M] 上海: 上海人民出版社, 2005

⁷ 薛君度, 陆南泉, 中俄贸易关系 [M] 北京: 中国社会科学出版社, 2003

⁸ 孙晓郁 面向未来的中俄经济关系[M] 北京: 中国发展出版社, 2003

⁹ 陆南泉, 中俄经济关系现状与前景[M] 北京: 中国社会科学出版社, 2011

¹⁰ Островский А.В. Состояние и перспективы строительства экономики КНР, КНР: политика, экономика, культура//Под ред.Титаренко М.Л. – М., 2007. – С.77.,

¹¹ Авдокушин. Е.Ф. Международные экономические отношения. Учебник. – М.: Юность, 2004. – С.368.

¹² Баженов Е.П. Китай и внешний мир. М., 2000.

¹³ Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. – М.: ИДВ РАН, 2009. – 264 с.

¹⁴ Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке. – СПб.: Питер, 2004. – С.15.

¹⁵ To'xliyev. N.T.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, o'quv qo'llanma. T. – 1998.

¹⁶ Vaxobov. A.V.Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash modellari va ulardan O'zbekistonda ijodiy foydalanish yo'nalishlari, Resp.ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2012 y.25 aprel, 3-9 b.

¹⁷ Haqberdiyev Q.Q. Moliya va kredit, T., 2006

¹⁸ Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti/O'quv qo'llanma. – T.:O'zdammatbuotliti, 2011. – 113b.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni olib borish jarayonida empirik, kuzatish, eksperiment, taqqoslash, guruhlash, tavsiflash, tizimli yondashuv, analiz, sintez va boshqa metodlardan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Har bir rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti uchun Xitoy moliya-kredit tizimini isloh qilish va zamonaviy modernizatsiyalash usullari bizning iqtisodiyotimizda tajriba sifatida foydalanish imkonini beradi. Undan tashqari, ishdagi moliya-kredit sohasini isloh qilish bo'yicha qilingan ba'zi bir tahlillar va tavsiyalar shu soha mutaxassislari uchun kerakli ozuqa bo'lishi mumkin. Mazkur ishdan iqtisodiy yo'nalishdagi Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan maxsus kurslarda va Xitoy iqtisodiyoti fanini o'qitishda ma'ruza sifatida bevosita foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishi tarkiban, 3 ta bob, 9 ta bo'lim, har bir bob bo'yicha xulosa, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 86 bet.


I BOB. MOLIYA-KREDIT TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

1. Zamonaviy moliya-kredit tizimining institutsional tuzilishi tarkibi

Ayrim mamlakatlarning moliyaviy tizimlarini tavsiflashdan oldin avvalo iqtisodiyotning moliyaviy sektorida faoliyat yuritadigan tashkilotlarning umumiyliigi, ya'ni uning institutsional tuzilmasi qanday tashkil qilinganini batafsil ko'rib chiqamiz.

1-rasm deyarli har qanday mamlakat uchun qo'llaniladigan institutsional tuzilmaning eng umumiy ko'rinishini beradi. Iqtisodiyotning moliyaviy sektori keng va tor ma'noda ko'rib chiqilishi mumkin. Birinchi holda, u moliya tashkilotlarni, nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organlarni hamda moliyaviy ittifoqlarni o'z ichiga oladi. Moliya tizimidagi nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi organlarining asosiy vazifalari uning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash, davlat normalarini amalga oshirish va moliya institutlarining faoliyatini bevosita nazorat qilishdan iborat.

1.1 -rasm



1.1-rasm. Mamlakat moliya tizimining institutsional tuzilishi tarkibi.

Moliyaviy ittifoqlarning asosiy maqsadi moliyaviy tashkilotlar guruhlarini manfaatlarini davlat va jamoatchilikka taqdim etish va himoya qilishdir. Moliyaviy ittifoqlarning vazifalari quyidagicha ifodalanadi:

- manfaatlarni ilgari surish funksiyasi (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarida qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga takliflar va tuzatishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi);
- tegishli guruhlarining moliyaviy muassasalariga bevosita ko'rsatiladigan xizmat vazifalari (masalan, qayta tayyorlash dasturlari, audit, konsultatsiyalarni amalga oshirish va h.k.);
- marketing funksiyalari: ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrini (jamoatchilik aloqasi) shakllantirish;
- kasaba uyushmalari doirasida moliya muassasalarining manfaatlarini muvofiqlashtirish va ayniqsa, narxlash, raqobatli kurash uslublari va boshqa shu kabi sohalarda umumiy normalar yoki tavsiyalarni ishlab chiqish.

Moliya sektoridagi moliyaviy institutlarga bank tizimi bilan bog'liq tashkilotlar, shuningdek, bank bo'lmagan moliyaviy vositachilar kiradi. O'z navbatida, bank tizimida markaziy banklarga alohida o'rin beriladi. Mamlakatda pul-kredit siyosatini yuritish va banknotalar hamda boshqa kredit pullarini chiqarishga mas'ul markaziy emission banklar, shuningdek muayyan bank guruhlarini, masalan, markaziy kooperativ kredit banklari doirasida tartibga solish funksiyalarini bajaruvchi markaziy banklar mavjud.

Banklarning eng katta guruhi tijorat banklari bo'lib, ularni moliya va bank tizimlarining negizi sifatida qarash mumkin. Ikkala guruh banklarining funksiyalari, tamoyillari va vakolatlari quyida ko'rib chiqiladigan turli omillarga bog'liq holda mamlakatga qarab farqlanadi. Bank bo'lmagan yoki boshqa moliyaviy vositachilar sifatida faqat muayyan bank yoki "bankka o'xshash" funksiyalarni bajaradigan ko'pgina institutlarning yirik guruhlarini tushuniladi.

Ushbu guruh institutlarining xilma-xilligi ko'pincha mamlakat moliya tizimining rivojlanganlik belgilaridan biri hisoblanadi. Biroq shu o'rinda nobank

moliyaviy vositachilar guruhini yana ikkita katta guruhga ajratish mumkinligini ta'kidlash lozim:

- Mamlakat qonun chiqaruvchi organlari tomonidan kredit tashkilotlari sifatida qabul qilingan institutlar (masalan, Germaniyada – qurilish va jamg'arma kassalari, investitsiya banklari, depozitariy banklar, qimmatli qog'ozlar mulkini ro'yxatga olish va qayta ro'yxatdan o'tkazish, maxsus kafillik banklari);

- Kredit hisoblanmaydigan tashkilotlar (sug'urta kompaniyalari, pensiya jamg'armalari, ko'chmas mulk jamg'armalari, lizing kompaniyalari, dilerlik kompaniyalari va boshqalar).

Kredit tashkilotlari ko'pchilik milliy qonunchilikda foyda olishni asosiy maqsad qilib olgan yuridik shaxslardir, ular mamlakat markaziy bankining ruxsatnomasi (litsenziyasi) asosida ish yuritadilar va alohida yoki barcha bank operatsiyalarini o'tkazish huquqiga egadirlar.

Bank bu jami barcha bank operatsiyalarini amalga oshirishda, eng avvalo jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini jalb qilish, ushbu mablag'larni o'z nomidan va o'z mablag'lari hisobiga qaytarish, to'lash, tezkorlik shartlari asosida joylashtirish, jismoniy va yuridik shaxslarga bank hisoblarini ochish va yuritishda mutlaq huquqqa ega bo'lgan kredit tashkilotlarining asosiy turi hisoblanadi. Nobank kredit tashkilotlari esa qonunlarda nazarda tutilgan yoki markaziy bank belgilaydigan muayyan bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega.

Shuningdek, yana shuni ta'kidlash lozimki, ba'zan kredit va fond tashkilotlari ham ajratiladi. Kredit muassasalari ssuda kapitali bozorida, fond tashkilotlari esa qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritadi. Biroq bu bo'linish har doim ham amal qilavermaydi, chunki ayni muassasa ham kredit, ham fond institutlarining vazifalarini bajarishi mumkin. Bu holat asosan tijorat banklariga tegishli bo'lib, mamlakat qonunchiligi bo'yicha qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarga kirishishning taqiqlanganligi yoki keskin cheklanganligi bundan mustasno.

Bundan tashqari, ko'pchilik moliyaviy institutlarda operatsiyalarning barchasi yo asosiy qismi yoki ssuda kapitali bozorida yoki fond bozorida bajariladi. Birinchi guruhga, xususan, tijorat banklari, faktor kompaniyalar, lizing kompaniyalari, kredit jamg'armalari uyushmalari va shu kabilar mansub bo'lsa, ikkinchi guruhga fond birjalari, investitsiya kompaniyalari va fondlari, dilerlik kompaniyalari mansubdir. Shu sababli, kredit muassasalari haqida milliy qonunchilikda belgilab qo'yilgan ma'noda gapirish yanada oqilona hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyati institutlariga kelsak, bu konsepsiya, qoida sifatida, qonuniy ravishda aniqlanmagan. Shunga qaramay, qonunchilik ko'pincha fond tashkilotlarining umumiy tasnifini taqdim etadi va ular har qanday turdagi maqsad va vazifalarni bajarish huquqiga egadirlar. Shu o'rinda fond birjasi haqida gapirib o'tish maqsadga muvofiq bo'lib, u qimmatli qog'ozlar bozorining muntazam ishlashini ta'minlovchi moliya muassasasidir. Fond birjasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Qimmatli qog'ozlarni birinchi egalariga sotish va ikkilamchi savdoni amalga oshirish mumkin bo'lgan markazlashtirilgan manzilni ta'minlash;
- Birjalarning muvozanat narxini aniqlash;
- Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yig'ish va mulkka egalik qilishni osonlashtirish;
- Birja savdolarining oshkoraligi va ochiqligini ta'minlash;
- Arbitrajni ta'minlash;
- Birja zalida tuzilgan bitimlarning bajarilishini ta'minlash;
- Birja savdolari qatnashchilarining axloqiy standartlarini, axloq kodeksini ishlab chiqish.

Mamlakatlar moliya tizimining institutsional tarkibini yanada yaxshiroq anglab yetish maqsadida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda an'anaviy tarzda ikkita asosiy moliyaviy tizimlar segmentlangan va universal holda mavjudligini keltirib o'tish joiz. Universal moliya tizimida qonun banklarning bank xizmatlari bilan bog'liq bo'lmagan moliyaviy xizmatlarni bajarishini cheklamaydi. Bunday tizimning klassik namunasi sifatida Germaniya moliya tizimini keltirish

mumkin. Ba`zan olimlar universalizmga teskari ravishda, ya`ni nobank tashkilotlarning bank vazifalarini bajarish imkoniyatining mavjudligini ta`kidlashadi. Bu fikr butunlay aniq emas, chunki mamlakatlarda u xoh universal, xoh segmentli moliya tizimiga ega bo`lsin, deyarli barchasida bank operatsiyalarining bir qismini bajarishga ruxsat berilgan tashkilotlar bilan birga bunday huquqqa ega bo`lmagan moliyaviy muassasalar ham mavjud.

Shunday qilib, milliy moliyaviy tizimlarning turini aniqlash uchun banklar qonun bo`yicha qanday funksiyalarga ega ekanligi hamda boshqa operatsiyalarni ham bajara olish olmasligini bilish muhimdir.

.....

XULOSA

Xitoy Xalq Respublikasi o'zining iqtisodiy rivojlanishi davomida moliyaviy islohotlarni bir necha bor turli moliya sektorlarida amalga oshirdi. Ushbu islohotlarning barchasi Xitoy iqtisodiyotini raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon bozorida egallab ulgurgan marralarini saqlash va kengaytirish, aholi farovonligini oshirish, barqaror iqtisodiy sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiy va moliyaviy xususyatga ega bo'lgan xavflardan holi bo'lish uchun amlaga oshirilgan.

Xitoy zamonaviy moliya sohasidagi erishilgan ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlar uchun boy tajriba sifatida foydalanilishi mumkin. Islohotlarning tarixiy ketma-ketligiga qaraydigan bo'lsak, ular iqtisodiyotning real sektorida amalga oshirilgan islohotlar bilan teng olib borilgan. Bunda asosiy e'tibor Xitoy iqtisodiyotidagi real talabga yetarli darajadagi ham sifatli ham tezkor moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga e'tibor qaratilgan. Bu kabi tajriba boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasida ko'rilmaydi.

Misol tariqasida Sharqiy Yevropa va Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida amlaga oshirilgan moliyaviy islohtolar tajribasiniko'ramiz. Ushbu davlatlarda hali mavjud bo'lmagan bozor subyektlari uchun tashkil etilgan moliyaviy infrastruktura o'zini oqlashi biroz vaqt talab qilgan. Xitoyda esa, aksincha, talab va taklif mutanosibligiga erishilgan.

2017 yil yakunlariga ko'ra, Xitoyning eng yirik to'rtta banki hisoblanmish, Xitoy sanoat-savdo banki, Xitoy banki, Xitoy qurilish banki va Xitoy qishloq xo'jaligi banki umumiy deyarli 5.5 trln. AQSH dollari hajmida bank aktivlariga ega. Xitoyning mazkur to'rtta banki jahonning ikkinchi eng yirik iqtisodiy bo'lmish Xitoy bank aktivlarining 90%ini tashkil etadi. Bank sohasida Xitoyning bu kabi yirik yutuqqa qisqa vaqtda erishishiga iqtisodchi olimlar tomonidan quyidagicha sabablar ko'rsatiladi:

- Xitoyning yirik eksport sohasida faoliyat olib borayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlariga xizmat ko'rsatish Xitoy qonunchiligiga ko'ra faqat Xitoyning profilli banklari tomonidan amalga oshirilgan.

- Xitoyning JSTga aʼzo boʻlishidan oldin va undan keying davrda Xitoy oʻz ichki bozoriga chet el banklari va boshqa moliyaviy strukturalarini kiritishdan oldin oʻzining banklarining raqobatbardoshlik darajasini koʻtarib oldi;

- Maʼmuriy buyruqlar asosida Xitoy hatto hozirgi kunda ham chet el banklarini oʻz hududiga kiritishda cheklovlar oʻrnatgan, bunga Xitoyning rivojlanayotgan davlat maqomiga egaligi ham foyda beradi;

- Xitoy banklari hozirgi kunda nafaqat oʻz hududidagi xoʻjalik yurituvchi subyektlarga, balki chet el tashkilotlariga ham moliyaviy xizmatlar koʻrsatishni yoʻlga qoʻyib yuborgan, bu esa oʻz navbatida ularning xalqaro moliya bozoridagi raqobatbardoshligi oshganligini bildiradi;

- Xitoy 2010-yillardan boshlab, xalqaro miqyosdagi moliyaviy institutlarni tashkil qila boshladi. Ushbu moliyaviy institutlar Xitoyning xalqaro maydondagi investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda foydalaniladi. Ushbu tashkilotlarga misol tariqasida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankini keltirishimiz mumkin. Ushbu bankning asosiy tashkilotchilari Xitoy, Rossiya, Hindiston hisoblanadi. Tashkilotchilar uchtaligiga qaramay, ulardan faqat Xitoy veto huquqiga ega. Ushbu bankning ustav kapitali 100 mlrd AQSH dollari boʻlib, aʼzolari soni 52 ta.

Oʻzbekiston ham oʻz moliya-kredit tizimini shakllantirish, uning samaradorligini taʼminlashda jahon, xususan, Xitoy tajribasidan keng foydalanadi. Bunga misol sifatida Oʻzbekistonda ham tashkil etilgan profilli banklar va fond birjasini tashkil qilish jarayonlarini keltirishimiz mumkin.

Zamonaviy bozor munosabatlarining takomillashuvi sharoitida Oʻzbekiston Respublikasi uchun samarali moliya-kredit tizimini muqobil variantlarini tanlash va uning iqtisodiy oʻsishga taʼsirini bashoratlash hamda ichki iqtisodiy iqtisodiy siyosat samaradorligiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, samarali moliya-kredit tizimini yaratish barqaror iqtisodiy oʻsish surʼatlariga erishishda muhim omildir.

Moliya-kredit tizimini samarali faoliyati uning tashqi va ichki omillariga bogʻliq.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda korxonalarni uzoq muddatli kreditlash orqali ularni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishga, ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiyalash bo'yicha bir qator iqtisodiy amalga oshirilgan. Jahon iqtisodiyotida yuz bergan moliyaviy inqirozlarning asosiy sabablaridan biri – moliya-kredit tizimida qabul qilingan noto'g'ri qarorlar va boshqa qator kamchiliklardir. Bu bevosita har bir davlatda xususan, mamlakatimizda ham moliya-kredit tizimi barqarorligini ta'minlash hamda samarali va puxta o'ylangan tizimni yaratishni taqozo etadi. Moliya-kredit tizimining samarali faoliyati asosan moliya muassasalarining o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liqlik mavjud.

Moliya muassasalarining biri bo'lmish bank tizimi va iqtisodiy o'sish sur'atlari orasida kuchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lib, iqtisodiy o'sish subyektlar daromadlarining o'sishiga olib kelsa, bu o'z navbatida moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab oshishiga olib keladi hamda bank tizimi rivojlanishini rag'batlantiradi. Shuningdek, bank tizimida resurslar kapitalizatsiyasi jadallashuvi orqali resurslar samarali taqsimlanadi va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, moliya-bank tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosa va tavsiyalarni berishimiz mumkin:

- moliya-kredit tizimi xodimlari malakalarini muttasil ravishda oshirib borish;
- bank rahbarlari va xodimlaridan moliya-kredit qonunchiligining talablarini to'liq o'rganib chiqishlarini talab qilish va xatolarga yo'l qo'ymasligini nazorat qilish;
- xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash asosida chet el investitsiyasini jalb qilish bo'yicha uzoq muddatlarga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish;

- tadbirkorlarning soliq to‘lashdan qochishlarini va daromadlarini chetga chiqarishini kamaytirish uchun ular faoliyati uchun qulay soliq muhitini yaratish va soliq stavkalarini tabaqalashtirish;
- qimmatbaho qog‘ozlar bozori faoliyatini tartibga soluvchi qonun bazasini va mazkur turdagi qonun bazasini va mazkur turdagi operatsiyalaridan keladigan daromadlarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish;
- kapitalning chiqib ketishiga qo‘yilgan cheklovlarni kamaytirish.

Shuningdek, jahon tajribasiga tayanib, capital oqimi bo‘yicha ijobiy natijalarga nafaqat cheklovlar o‘rnatish orqali, balki milliy iqtisodiyot mavjud holatini tahlil qilgan holda, iqtisodiy rivojlanish strategiyasini to‘g‘ri tanlash orqali erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda Xitoy moliya-kredit tizimining xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari ham O‘zbekiston uchun yaxshigina tajriba bazasi bo‘lib xizmat qila oladi. Xususan Xitoy integratsiyaga kirishishdan oldin o‘z moliya muassasalarini xalqaro raqobatga tayyorlab oldi, O‘zbekiston ham bu borada shu yo‘ldan bormoqda. O‘zbekiston uchun birinchi galda o‘zining moliyaviy tashkilotlari nufuzini mustahkamlab olish eng asosiy vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-moliyaviy islohotlarning amaliy natijalari xalqaro moliya institutlari, xususan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi missiyalari tomonidan ham e‘tirof etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va baholardan xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston moliya-bank sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning Xitoy va jahon tajribasiga yondoshib izchil davom ettirishi mamlakatimiz moliya-bank tizimining xalqaro mavqei istiqbolda bundan ham yuksalishiga hamda xalqaro moliya institutlarining yanada yuqori baholariga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan)
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”ги Қонуни. 1995 йил 21 декабрь. Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 7-29-бетлар.
3. Ўзбекистон Республикаси «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қонуни. 2015 йил 3 июн.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi PQ-1317-sonli “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 29-dekabrda “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi 284-son qarori

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

7. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga

kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

8. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

9. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

10. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari. /. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

III. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek tilida

11. Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

12. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik.–Toshkent.: O'zbekiston, 2005. – 528 b.

13. Karimov I. A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 72 b.

14. Mahmudov E. R. Zamonaviy iqtisodiy tizimlar. – Toshkent, 2011. – 328 b.

15. Melibayeva G. A., Gaziyeu F. Sh. Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi. – Toshkent: JIDU, 2011. – 120 b.

16. Nazarova G.G., Xaydarov N.X., Akbarov M.B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: RAM-S, 2007. – 268 b.
17. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Azimov A.E., Nazarova R.R. —Xalqaro iqtisodiy integratsiya. – Toshkent: TDIU, 2009. – 268 b.
18. Sodiqov Z.R. Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuv tendensiyalari. – Toshkent: TIU, – 2011. – 91 b.
19. Sadibekova B.D. Osiyo Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlarida ijtimoiy iqtisodiy siyosat. – Toshkent, 2013. – 126 b.
20. Sadibekova B.D. Xitoy iqtisodiyoti. – Toshkent: O‘zdavmatbuotliti, 2011. – 104 b.
21. Shodiyev R.H., Mahmudov E.R. Jahon Iqtisodiyoti. – Toshkent, 2006. – 435 b.
22. Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 226 b.
23. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent, 2006. – 134b.
- 24 To‘xliyev N.T. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 1998.
25. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев Қ. Қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н.Б. Иқтисодий билим асослари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 98 б.

Rus tilida

26. Белоглазова Г.Н. Деньги, кредит, банки. Учебник. – Москва.: Высшее образование, 2008. – 620с.
27. Бернارد Х., Морис Ш., Юничи Г. Выгоды региональной интеграции. – Москва, 2000. – 208 с.
28. Васильев Л.Е. АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и преспективы. Москва: ФОРУМ, 2010. – 368 с.

29. Гончаров И.В. Организационно-экономические принципы формирования механизма развития промышленности стран ЮВА в условиях региональной интеграции. Санкт-Петербург, 2007. – 194с.
30. Далимов Р.Т., Махамбетова З., Худякова Н.К. Международная экономическая интеграция. – Ташкент: Университет, 2004. – 240 с.
31. Дынкин А.А., Н.П. Шмелев. Мировая экономика и международные экономические отношения. – Москва: ИНФРА-М, 2013. – 654 с.
32. Исполнительный комитет СНГ. Основные интеграционные объединения мира: цели и перспективы развития. – Москва, 2014. – 42с.
33. Жуджунь Д., Ковалев М.М., Новик В.В. Феномен экономического развития Китая: Научное издание. Минск: Издательский центр БГУ, 2008.– 446 с.
34. Колесов В.П., Кулаков М.В. Международная экономика – Москва: ИНФРА-М, 2008. – 474 с.
35. Ломакин В.К. Мировая экономика. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. – 671 с.
36. Мелибаева Г.А. Экономическое сотрудничество Китая со странами Центральной Азии. – Ташкент, 2010.
37. Махмудов Э. Р. Мировая экономика: современные экономические системы. – Ташкент, 2004. – 264с.
38. Михеев В. Восточно-Азиатское Сообщество Китайский фактор и выводы для России. – Москва, 2004. – 23 с.
39. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – Москва.: Вильямс, 2013. – 880 с.
40. Моисеев С.Р. Денежно-кредитная политика: теория и практика. – Москва.: Экономист, 2008. – 652 с.
41. Навой А.В. Центральный банк в глобальном хозяйстве. Монография. – Москва, 2010. – 528 с.

42. Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления: Автореф. дисс... док.экон.наук. – Ташкент, 2001. – 39 с.
43. Орман А.А. Китайская Народная Республика – Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – 712 с.
44. Полякова В.В. Мировая экономика и международный бизнес. – Москва: КНОРУС, 2008. – 688 с.
45. Рибалкин В.Е. Международные экономические отношения. – Москва – 2005. – 214 с.
46. Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке. – СПб.: Питерб 2004. – 240 с.
47. Сергун И.П. Перспективы участия России в интеграционных процессах в Юго-Восточной Азии: на примере опыта создания зоны свободной торговли Китай – АСЕАН. кан.эконом.наук дис. – Саратов – 2013. – 236 с.
48. Синицын А.Ю. АСЕАН в политике РФ и США канд.пол.наук, дисс. Москва – 2014. – 151 с.
49. Уиткомб. В. Современный Китай / Ванесса Лайд Уиткомб, Майкл Бенсон: пер. с англ. И.В. Павловой. – Москва.: АСТ: Астрел. 2006. – ХВИ – 318 с.
50. Усов В.Н. История КНР. В 2 т.Т.И.1949 – 1965 гг: учебник / В.Н. Усов. – Москва: Восток – Запад, 2006. – 812 с.
51. Титаренко М. Л. Россия и ее азиатские партнеры в глобализирующемся мире. Стратегическое сотрудничество: проблемы и перспективы – Москва: ФОРУМ, 2012. – 544 с.
52. Шенкер О. Китай: век XXI. Развитие Китая, его влияние на мировую экономику и геополитическое равновесие. – Днепропетровск: Баланс Бизнес Букс, 2005. – 145 с.
53. Энциклопедия Нового Китая. Москва, 1996. – 512 с.

Ingliz tilida

54. Balassa B. The Theory of Economic Integration. – London Allen & Unwin, 1961/2012 – 450 p.

55. Carlsen A., Holz. China's Economic Growth 1978–2025: What We Know Today About China's Economic Growth Tomorrow. World Development – Elsevier Ltd. – 2008, No. 10, 50 p.

56. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific. – New York, 2014. – 299 p.

57. Hands across the Strait. Shameen Assif. Bus. Week. Eur. Ed. 2015, №6 -13 Sept., 41 p.

58. Huwart, Jean-Yves and Loïc Verdier “The 2008 financial crisis – A crisis of globalisation?”, in Economic Globalisation: Origins and consequences, OECD Publishing. – Paris, 2013. – 135 p.

59. Ignatius I., Krishnamurti I. The Political-Economy of ASEAN-China FTA. University of Pelita Harapan, Karawaci, Indonesia . –2014. –30 p.

60. Ozawa T. The rise of Asia. The “flying geese” theory of tandem growth and regional agglomeration. – Cheltenham (UK), Northampton (MA, USA): Edward Elgar, 2016.

61. Sergun P. ASEAN+3: Key Positions of Cooperation and Prospects of Development.

62. Severino, Rodolfo C. Southeast Asia in search of an ASEAN community. – Institute of Southeast Asian Studies, Singapore, – 2006. – 450 p.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

63. Алиджанова О.Т. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашуви шароитида интеграцион жараёнлар (ОТИҲ мисолида) // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимида интеграциялашувининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2013. – Б. 39-42.

64 Вердиева Н.Е Экономическое сотрудничество как составная часть ШОС // Global iqtisodiy inqiroz va inqirozdan keyingi davrda milliy

iqtisodiyotlar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlari. – Toshkent, 2010. – Б. 134-138.

65. Лицарева Е. Ю. АСЕАН и проект «Восточноазиатское сообщество» // Политология. Религиоведение. – Томск: ТГУ, 2014. – № 7. – С. 36-43.

66. Мелибаева Г.А., Рахманов Б.Б. Современное состояние торгово-экономических отношений между Республикой Узбекистан и КНР // Международные отношения. Ташкент, 2013. – № 3. – С. 40-44.

67. Петрунина Ж.В. доктор исторических наук, профессор кафедры истории и архивоведения Комсомольского-на-Амуре государственного технического университета «Экономическое взаимодействие Китая и стран АСЕАН В XXI в.» Россия и АТР. – 2012. № 1. – С. 2-5.

68. Рахман М.С. Развитие внешнеэкономической деятельности стран – членов интеграционного объединения АСЕАН. –БІЗНЕСІНФОРМ № 3, 2012. – С. 87-92

69. Садибекова Б.Д. Ўзбекистон ва Хитой савдо-иқтисодий алоқаларининг ривожланиш тенденциялари//Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2013. – Б. 106-110.

70. Сергун И.П. Вьетнам в экономической интеграции АФТА и КАФТА // Экономика. – М., 2011. – № 2. – С. 146-152.

71. Турсунов Б.М. Вопросы финансового регионализма в восточноазиатской экономической интеграции // Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон ҳўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари. – Тошкент, 2013. – Б. 12 –16.

72. Фу Минсин. Отношения добрососедства и открытости //. – Экономическое обозрение №5, –2009. – С 3-4. ШОС предоставляет коммерческие возможности малому и среднему бизнесу // Китай. № 12, – 2010. –146.

73. Чзун Хегао Что значит 7,4 % // Китай, 2015. – № 2. – С. 30-31.

74. Холматов Н.Б. Тенг манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш орқали халқаро бозорга интеграциялашиш масалалари// Ўзбекистон иқтисодиётининг минтақавий бозорлар ва жаҳон хўжалик тизимига интеграциялашувининг долзарб масалалари. Тошкент – 2013. – 138 б.

75. Ю. Шан Шан. Мы надеемся на прекрасное будущее // Китай, 2011. – № 3. – С. 11–12.

76. Ю. ШанШан. Стабильный рост экономики// Китай, 2014. – № 3. – С. 26-28.

77. Юсупов Н. Некоторые факторы экономического роста Китая – Экономическое обозрение. М., 2012. – №7. – С. 8-9.

78. Koldunova E. The Asia-Pacific Regional Institutions: Stalemate or Transformation? // Moscow State Institute of International Relations, the MFA of Russia (MGIMO – University) – 2013. – 10 p.

79. Dilip K. Das China's Contribution to Recent Convergence and Integration among the Asian Economies // Journal of East Asian Economic Integration Vol. 17, No. 1– 2013. pp. 55-79.

V. Internet saytlari

80. <http://www.lex.uz> (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

81. <https://stat.uz/uz> (O`zbekiston Respublikasi davlat statistika qo`mitasi rasmiy sayti)

82. <http://www.cbu.uz> (O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti)

83. <http://www.stats.gov.cn> (XXR milliy statistika byurosi rasmiy sayti)

84. <http://www.imf.org> (Xalqaro valyuta fondi veb sayti)

85. <https://www.wto.org> (Jahon savdo tashkiloti veb sayti)

86. <http://www.worldbank.org> (Jahon banki guruhi veb sayti)

87. <https://ru.sputniknews-uz.com> (“Sputnik” yangiliklar agentligi veb sayti)

88. <http://www.xinhuanet.com/english> (ingliz tilidagi “Sinxua” XXR hukumatining rasmiy axborot agentligi veb sayti)
89. <http://russian.people.com.cn> (rus tilidagi “Sinxua” XXR hukumatining axborot agentligi rasmiy veb sayti)
90. <http://www.pbc.gov.cn> (Xitoy Xalq banki rasmiy veb sayti)
91. <http://www.polit.ru> (polit.ru axborot portal veb sayti)
92. <https://www.ndb.int> (Yangi taraqqiyot banki rasmiy veb sayti)
93. <https://www.aiib.org> (Osiyo infrastrukturaviy investitsiyalar banki rasmiy veb sayti)